

“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i

Sh .R. Mamadaliyev

“17”aprel 2025- yil



**“Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limi” to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Viloyat statistika boshqarmasi “Demografiya, mehnat va gender statistikasi” bo‘limining (keyingi o‘rinlarda bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlar, shuningdek, uning faoliyatini yuritish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda viloyat statistika boshqarmasi deb ataladi)ning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim demografiya, mehnat va gender statistikasi masalalari bo‘yicha faoliyatini “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi” viloyat statistika boshqarmasi rahbariyati hamda boshqarmaning boshqa tarkibiy bo‘linmalari va hududiy statistika organlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish milliy modelining barcha bosqichlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

6. Bo‘lim o‘z faoliyatini viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i rahbarligida amalga oshiradi.

Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i o‘rinnbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimi doirasida dasturda belgilangan ishlar ijrosini ta'minlash;

foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid dolzARB statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish;

xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning viloyat rasmiy saytlarida o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlash;

demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish.

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimi doirasida dasturda belgilangan ishlar ijrosini ta'minlash:

demografiya, mehnat va gender statistikasidan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rGANISH natijalarini hisobga olgan holda milliy demografiya, mehnat va gender sohasi rivojlanishining istiqbolli maqsadlari va yo'nalishlarini belgilaydi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg'or uslubiyotlari va tavsiyalarini amalda joriy etish;

demografiya, mehnat va gender statistikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda amalga oshiradi va statistika dasturlar ijrosini ta'minlash;

demografiya, mehnat va gender statistikasi sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rGANISH hamda xalqaro tavsiyalar asosida normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyotlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, joriy etish va takomillashtirishda ishtirok etadi;

vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tavsiya, qo'llanma va ko'rsatmalar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rGANISH asosida statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish, statistika kuzatuvlarini o'tkazishda ishtirok etadi;

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan demografiya, mehnat va gender xususiyatiga ega dolzARB statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, tarqatish va e'lon qilish ishlarini amalga oshiradi;

milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilar bilan birgalikda statistika dasturlarining demografiya, mehnat va gender statistikasi qismi bajarilishini ta'minlaydi;

demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning statistik hisob-kitoblarini amalga oshiradi hamda ushbu sohalarda viloyatdagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning dastlabki statistik tahlilini olib borishda ishtirok etadi;

respondentlarga elektron shakldagi statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish uchun maxsus axborot tizimidan bepul foydalanish imkonini yaratishda ishtirok etadi;

respondentlarga ishonchli statistika ma'lumotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistika ma'lumotlarini taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi hisobotlarini yig'ish, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish hamda ularni tarqatish va e'lon qilish jarayonlariga davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashuvini istisno qilish chora-tadbirlarini ko'radi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha ma'lumotlar bazasini, veb-saytlarni yuritadi va yangilab boradi, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir zarur tushuntirishlar beradi;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilar bilan demografiya, mehnat va gender bo'yicha statistika ma'lumotlari va metama'lumotlar almashinuvini keng yo'lga qo'yadi;

oligan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot va individual ma'lumotlardan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida statistika organlari faoliyati jarayonlarida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashni ta'minlaydi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra pulli asosda taqdim etish uchun tayyorlashda ishtirok etadi;

shartnoma asosida demografiya, mehnat va gender sohasida rasmiy statistika masalalari bo'yicha pulli xizmatlar, shuningdek, Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatish hamda ishlarni bajarishda ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiliga muvofiq demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha statistika organlari faoliyati jarayonlarida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshiradi;

d) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

rasmiy demografiya, mehnat va gender statistikasi ma'lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirish yo'li bilan xolisona, sifatli va talab yuqori bo'lgan hisobot ma'lumotlari tayyorlanishini, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliliginini ta'minlash;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha ochiq statistika ma'lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatish va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratishda ishtirok etadi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, statistika ma'lumotlarining mazmuni va sifatini yanada yaxshilash maqsadida foydalanuvchilar o'rtasida taqdim etilayotgan demografiya, mehnat va gender statistikasi ma'lumotlaridan qoniqish darajasini baholash bo'yicha so'rovlar o'tkazadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlarining manbalari, ularni tayyorlash usullari, ishonchliligi, shaffofligi, oshkoraligi va sifati to'g'risida foydalanuvchilarni metama'lumotlar yordamida xabardor qilib boradi.

e) statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish va tahlil qilish maqsadida, zaruratga ko'ra, mayjud axborot tizimlarining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yishda ishtirok etadi;

f) davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning Viloyat rasmiy saytlarida o'z vaqtida aks ettirilishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha Portalda e'lon qilinadigan ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish hamda yangilanishning aniq muddatlari va davriyigini belgilagan holda tasdiqlanishini hamda muntazam yangilab turilishida ishtirok etadi;

j) milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi xodimlarining statistika sohasidagi bilim hamda ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tasdiqlash hamda amalga oshirilishini tashkil etishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi xodimlari uchun lavozim va malaka darajalariga ko'tarilishda ularning mehnat faoliyati, irodaviy va axloqiy sifatlari, iqtidori va ko'nikmalarini xolisona baholashga asoslangan teng imkoniyatlar yaratadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo‘lmaydigan munosabatni shakllantirish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘radi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi faoliyatini takomillashtirish maqsadida ilg‘or statistik usullar va vositalar asosida innovatsion ishlanmalarni amaliyotda joriy etish;

xalqaro tavsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib borish maqsadida demografiya, mehnat va gender statistikasiga doir turli xalqaro tadbirlar, seminar, treninglar va boshqa tadbirlarda tizim vakillarining ishtirokini ta’minlaydi;

Statistika boshqarmasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi

8. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Demografiya, mehnat va gender statistikasi kuzatuvlarini tashkil etish va uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

Bo‘limga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumot va axborotlarni Statistika qo‘mitasi va bo‘limlari hamda hududiy statistika organlaridan olish;

Bo‘lim vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha shahar va tuman statistika bo‘limlari bilan hamkorlik qilish;

Bo‘lim statistikaning yagona ilmiy uslubiyatiga asosan statistik ma’lumotlarni tartibga solish va ularning sifatini oshirish uchun, vakolatiga kiradigan statistik, tahliliy va boshqa ma’lumotlarning saviyasi uchun javobgar bo‘ladi;

Bo‘lim boshlig‘i va xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan eng muhim ustivor vazifalar va zamonaviy talablardan kelib chiqib, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizomi, hamda ushbu nizomda belgilangan vazifalar, funksiyalar, majburiyatlarni to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, o‘ziga berilgan vakolatlar, huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanimishi uchun javob beradilar;

Bo‘lim faoliyatiga tegishli masalalar bo‘yicha konferensiylar, seminarlar va yig‘ilishlar, shu jumladan xalqaro yig‘ilishlar ishida, shuningdek xalqaro loyihalarda ishtirok etadi.

9. Bo‘lim quyidagilar uchun javobgar:

- o‘ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

- vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga amal qilish, ilg‘or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanimayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo‘lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta’minlash.

4-bob. Bo‘limning tuzilmasi

10. Bo‘lim va uning tarkibiga kiruvchi xodimlar ishiga bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

11. Bo‘lim boshlig‘i, mutaxassislari viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Bo‘limning asosiy prinsipi:

- bo‘lim faoliyati rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi axborot-statistika tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga yo‘naltirish;
- hisobot turlari bo‘yicha axborotlarni Statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar va muddatlarda yig‘ish, qayta ishslash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish;
- hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etish, bu yo‘nalishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasi asosiy ko‘rsatkichlarining takomillashtirilgan ma’lumotlar bazasini yuritish.

5-bob. Bo‘limning faoliyatini tashkil etish

12. Bo‘limning ishi O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni, Statistika ishlari dasturi, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi” tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, Viloyat statistika boshqarmasi to‘g‘risida nizom, mazkur nizom, viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘ining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek viloyat statistika boshqarmasinin ish rejaları, bo‘limning ish rejaları va bo‘lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo‘limning ish taqsimoti viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan viloyat statistika boshqarmasining ish rejaları asosida shakllantiriladi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalari bo‘lim boshlig‘i tomonidan bo‘linmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

13. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizoming holati uchun shaxsan javob beradi;

Boshqarmaning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va jazolash choralar bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig‘iga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Viloyat statistika boshqarmasining yig‘ilishlari va majlislarida, shuningdek viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatining topshirig‘iga binoan boshqarmaga taalluqli masalalar bo‘yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Statistikasi sohasida normativ va metodologik hujjatlarni va statistika kuzatuvlari shakllari loyihalarini ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo‘yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini ta‘minlaydi;

Normativ-huquqiy hujjatlar, rejalar va dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda, shuningdek ularning statistikasiga tegishli qismini ijro etishda ishtirok etadi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;

Bo‘lim kadrlari zahirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zahirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;

Bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnomalar berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

Ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etilishini qat’iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta‘minlaydi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ularning ishini muvofiqlashtiradi, bo‘limga yuklangan vazifalar va funksiyalarining bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va boshqarmaning ish rejalarida ko‘zda tutilgan masalalarni o‘rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta‘minlaydi;

Bo‘lim mutaxassislari tomonidan ma’lumotnomalar, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni, shuningdek bo‘limga yuklangan vazifalar bo‘yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

Statistika sohasida ilg‘or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha bo‘lim mutaxassislari tayyorlagan takliflarni umumlashtiradi;

Bo‘limga yuklangan masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini amalga oshirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar, tashkiliy chora-tadbirlar yoki nazorat rejalarini tayyorlash va tasdiqlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

Boshqarma boshlig‘i bilan birga bo‘lim faoliyatini takomillashtirish, Statistika ishlari dasturini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Bo'lim ishlarining samaradorlik darajasini oshirish, ish uslubi va metodlarini, ularni tashkil qilishni yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

Bo'limning o'zi boshchilik qiladigan bo'limi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududiy statistika organlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

Xodimlar tomonidan davlat va tijorat siriga rioya qilinishini hamda bo'limga kiruvchi materiallarni va bo'limdan chiquvchi materiallarning nusxalarini saqlanishini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalarni muhokama qilishda idoralar, korxonalar va tashkilotlarda viloyat statistika boshqarmasi manfaatlarini ifodalaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi bo'linmalarining takliflarini umumlashtirishda ishtirot etadi;

Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqilishini (zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida) tashkil qiladi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga kiritadi;

Vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'limgan taqdirda uning vazifasini etakchi mutaxassisini bajaradi.

14. Bo'lim yetakchi mutaxassisi:

Statistik ko'rsatkichlarni ishonchliligi, obyektivligi, to'liqligi va tizimliligini ta'minlashda ishtirot etadi;

Kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblar metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishslash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun ishslash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash, statistik instrumentariylarni shakllantirilishini, byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlanishini tashkil etadi;

Statistik kuzatuvlarning elektron ma'lumotlar bazasi saqlanishini va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlar yuritilishini nazorat qiladi;

Vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Demografiya, mehnat va gender statistikasi faoliyatiga aloqador barcha masalalarni qamrab oluvchi kompleks ishlarni amalga oshiradi;

Statistika hisobot shakllarini shakllantirish, ishlab chiqish va takomillashtirishda faol qatnashadi;

Ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va internet tarmog‘idagi materiallarni o‘rganish asosida statistika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

Funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma bo‘linmlariga va hududiy statistika organlariga maslahat yordami ko‘rsatadi;

Ma’ruzalar, statistik byulleten va to‘plamlar uchun ma’lumotlar tayyorlaydi;

Statistik hisobot shakllarining dasturiy bazasini takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarda faol qatnashadi;

Taqdim etilayotgan statistik ma’lumotlar va hisobotlarning ishonchliligi va aniqligini tekshiradi;

Davlat va tijorat sirlariga ega statistik ma’lumotlarning saqlanishini ta’minlaydi;

Bo‘limga tegishli ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlashga, kelib tushuvchi va chiquvchi materiallar bo‘yicha davlat va tijorat sirlarini saqlashga javob beradi;

O‘z ish faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning me’yoriy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi nizomiga va ushbu nizomga qat’iy amal qilishi lozim;

Rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

Vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalgaga oshiradi.

Belgilangan ish sohasi bo‘yicha hisobotlarni o‘z vaqtida shakllantirish va to‘plashni qat’iy nazorat qiladi;

Statistika hisobot shakllarini ishlab chiqish va takomillashtirishda faol qatnashadi;

Funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjat loyihibarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

Ma’ruzalar, statistik byulleten va to‘plamlar uchun ma’lumotlar tayyorlaydi;

Statistik hisobot shakllarining dasturiy bazasini takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarda qatnashadi;

Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi bilan birgalikda taqdim etilayotgan statistik ma’lumot va hisobotlarning ishonchliligi va aniqligini tekshiradi;

Bo‘lim faoliyatiga doir tahliliy hisob-kitoblarni amalgaga oshiradi;


Bo‘lim boshlig‘ining topshirig‘iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko‘rib chiqish uchun zarur materiallar va ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtirop etadi;

Ish yuritishni olib boradi, bo‘limda hujjatlarning o‘tish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o‘z vaqtida topshirishni ta’minlaydi;

Rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

Vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalgaga oshiradi.

Bo‘lim nizomi va ish taqsimoti bilan tanishdim:

T/r	F.I.SH	lavozimi	imzo
1	Mutalipov Xayotbek No‘monjon o‘g‘li	Bo‘lim boshlig‘i	
2	Golovanova Lyudmila Vladimirovna	Yetakchi mutaxassis	